



Nargiza KAMOLOVA,
UrIU Tarix kafedrası dotsenti, PhD
E-mail:kamolovanargiza2018@gmail.com

UrIUTarix kafedrası dotsenti, D.Atayeva taqrizi asosida

O'RTA OSIYO XONLIKLARIDA AGRAR SIYOSAT: BUXORO XONLIGI MISOLIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'rta Osiyo xonliklarida, xususan, Buxoro xonligida agrar siyosatning shakllanishi, amalga oshirish mexanizmlari va uning jamiyat hayotiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida agrar munosabatlarning huquqiy asoslari, yer egaligi shakllari, yer-suv resurslarini boshqarish tizimi hamda sug'orma dehqonchilikning rivojiga ta'sir ko'rsatgan omillar o'rganildi. Maqolada davlatning yer taqsimoti, mulozimlar faoliyati, beklklar boshqaruv tizimi va mahalliy aholi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar manbaxunoslik materiallari asosida yoritilgan. Mazkur maqola Buxoro xonligidagi agrar boshqaruv tizimi tarixini chuqur o'rganishga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: Qoradaryo, amiriy yerlar, kazna yerlar, qo'sh.

AGRARIAN POLICY IN THE CENTRAL ASIAN KHANATES: THE CASE OF THE BUKHARA KHANATE

Annotation

This article analyzes the formation of agrarian policy in the Central Asian khanates, particularly in the Bukhara Khanate, the mechanisms of its implementation, and its impact on social life. The study examines the legal foundations of agrarian relations, forms of land ownership, the management system of land and water resources, as well as the factors that influenced the development of irrigated agriculture. The article also highlights, based on source materials, the state's land distribution practices, the activities of administrative officials, the governance system of the beks, and the economic relations between the population and the authorities. This study is valuable for its scholarly conclusions, which contribute to a deeper understanding of the history of agrarian administration in the Bukhara Khanate.

Keywords: Qoradarya River, Amir's lands / amirial lands, treasury lands, qosh.

АГРАРНАЯ ПОЛИТИКА В СРЕДНЕАЗИАТСКИХ ХАНСТВАХ: НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОГО ХАНСТВА

Аннотация

В данной статье анализируются формирование аграрной политики в ханствах Средней Азии, в частности в Бухарском ханстве, механизмы её реализации и её влияние на общественную жизнь. В ходе исследования изучены правовые основы аграрных отношений, формы землевладения, система управления земельно-водными ресурсами, а также факторы, повлиявшие на развитие поливного земледелия. В статье на основе источниковедческих материалов раскрываются государственное распределение земель, деятельность должностных лиц, система управления бекствами и экономические отношения между населением и властью. Настоящая работа ценна своими научными выводами, способствующими более глубокому изучению истории аграрного управления в Бухарском ханстве.

Ключевые слова: Кородарья, амирские земли, казённые земли, кош.

Kirish. XXI asrda jahon aholisi sonining jadal sur'atlar bilan ortishi insoniyat oldiga ekologik izlanishlar, oziq-ovqat xavfsizligi va ochlik kabi qator global muammolarni kun tartibiga chiqardi. Bu holat dunyo mamlakatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning sezilarli darajada oshishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, mavjud tabiiy resurslardan, ayniqsa yer fondidan samarali va oqilona foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur vaziyat, o'z navbatida, ilk dehqonchilik madaniyati shakllangan hududlarni har tomonlama o'rganish va ularning tajribasini zamonaviy amaliyotgatabiq etish zaruratini keltirib chiqardi. Shuningdek, zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyalari, aqlli issiqxonalar, IoT (Internet of Things) tizimlari va yerni samarali ishlatish yo'nalishida, mahsuldor chorvachilik va sifatli sut mahsulotlari ishlab chiqarish va yer hamda tabiiy muhitga salbiy ta'siri kam bo'lgan pestitsid va o'g'it ishlab chiqarish masalalari bugungi zamonaviy qishloq xo'jaligi oldida turgan asosiy masalalar sanaladi.

Bugungi kunda AQSh, Yevropa, Tayvan, Xitoy va Yaponiya kabi iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda dehqonchilik sohasida ilmiy maktablar va ilmiy-tadqiqot

markazlari faoliyat yuritib, "Agro-Green International Co.", "Green Agro Technology Co.", "Rumelco-Agro" kabi yirik xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu tashabbuslar doirasidagi ilmiy izlanishlar nafaqat qishloq xo'jaligi tizimini takomillashtirishga, balki tarixiy dehqonchilik madaniyatini qayta tiklash va undan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga ham xizmat qilmoqda.

O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi tarixi Xorazm va Buxoro vohasi, Farg'ona vodiysining la'imi va obikor dehqonchilik an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mintaqadagi dehqonchilik madaniyatini ulardan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois, mazkur hududlarning an'anaviy sug'orma dehqonchilik tizimini o'rganish nafaqat mintaqaning tarixiy taraqqiyotini anglash, balki jahon dehqonchilik tarixidagi ilk agrotexnikaviy tajribalarni tiklash va tahlil qilish nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuni o'rganish jarayonida adabiyotlarni quyidagi tartibda guruhlash mumkin bo'ladi: 1.Arxiv hujjatlari; 2.XVII–XIX asrlarga oid mahalliy yozma manbalar; 3.XVIII–XIX asrlarda Yevropa va Rossiya sayyohlari, diplomatlari hamda olimlari tomonidan

qoldirilgan qaydlar; 4.Sovet davri tarixshunoslari va manbashunoslari tadqiqotlari; 5.Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar.

Tadqiqot uchun zarur bo'lgan materiallarning asosiy guruhini XIX asrga oid mahalliy yozma manbalar tashkil etadi. Mazkur davrda yaratilgan yozma manbalar o'sha davrdagi davlatning siyosiy va iqtisodiy jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan holda shakllangan. Mamlakat taxtiga yangi kelgan har bir hukmdorlar mamlakat taraqqiyotini ta'minlash maqsadida amalga oshirgan birlamchi islohotlari doirasida dehqonchilik yerlarini kengaytirish hamda yangi sug'orish tizimlarini barpo etish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Ushbu islohotlar jarayoni xonlik tarixshunoslari va muarrixlari tomonidan muntazam qayd etib borilgan bo'lib, bu yozuvlar keyinchalik muhim tarixiy manbalar sifatida shakllangan. XIX asrgacha yaratilgan mahalliy manbalar mualliflari o'z davrining yirik ziyolilari va bilimdon mutaxassislari qatoriga kirgan. Ular orasida Muhammad Rizo Ogahiy [1] va Mahmud ibn Vali [2] kabi tarixnavis olimlarning asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

XVIII asrning o'rtalariga kelib, rus va yevropaliklarning Markaziy Osiyo mamlakatlariga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada ortdi. Bu davrda rus va yevropalik tadqiqotchilar, sayohatchilar hamda missionerlar mintaqani har tomonlama o'rganish maqsadida tarixiy kartografiya, geografiya va qishloq xo'jaligi sohaslarida izlanishlar olib bora boshladilar. Dastlab ma'muriy va ilmiy hisobotlar shaklida tayyorlangan bu ilk kuzatuvlar keyinchalik ilmiy ahamiyatga ega manbalar sifatida tarixshunoslikda o'z o'rniga ega bo'ldi.

Jahon tarixshunosligida o'zbek davlatchiligi tarixining xonliklari davriga oid an'anaviy dehqonchilik tizimi haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlar aynan shu davr tadqiqotlari natijasida shakllangan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur tadqiqotlar bevosita xonliklar davridagi dehqonchilik tarixiga bag'ishlangan maxsus ilmiy ishlar bo'lmasa-da, ular mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va tabiiy-geografik hayoti haqidagi ma'lumotlar tarkibida mazkur masalaga doir muhim fikr va kuzatuvlarni o'zida mujassam etgan.

Sovet davri mualliflarining tadqiqotlari, asosan, monografiyalari, ilmiy maqolalar shaklida to'plam va ilmiy jurnallarda nashr etilgan [3]. Mazkur mualliflarning ilmiy ishlarida xonlik davridagi yerga egalik munosabatlari, an'anaviy dehqonchilik tizimi, sug'orish inshootlari bo'yicha tahliliy xulosalar berilgan bo'lsa-da, bu tadqiqotchilar o'z asarlarida dehqonchilik an'analari tarixini yaxlit tizim sifatida o'rganmaganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida tarixiy tadqiqotning tarixiylik va xolislik hamda tizimlilik, xronologik, qiyosiy, manbaviy tahlil qilish, arxiv materiallarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. XIX asrga kelib Buxoro xonligida aholining katta qismi tinch mehnatdan chalg'itilib, harbiy yurishlarga safarbar etilishi irrigatsiya tizimining tezda yemirilishiga olib keldi. Natijada dehqonchilik uchun yaroqli yer maydonlari qisqarib bordi. Birgina bir asr mobaynida ming yillik tarix davomida millionlab insonlarning mehnati evaziga barpo etilgan sug'orish tizimlari deyarli butunlay inqirozga yuz tutdi.

Mazkur jarayon natijasida faqat ayrim irrigatsiya inshootlari – akveduklar, sardobalar, suv omborlari va yirik kanallarning vayron qoldiqlari xonlik hududida saqlanib qolib, mamlakatning o'tmishdagi yuksak irrigatsion madaniyatidan darak berib turardi. Biroq tanazzulga qaramay, Buxoro xonligining ayrim hududlarida dehqonchilik faoliyati davom etdi. Mazkur yerlarda hosil yetishtirish saqlanib qolgani bois ular o'zining “don ombori” maqomini saqlab qolgan. Bu

yerlardan olingan hosil nafaqat Buxoro aholisi uchun, balki uzoqdagi Xiva xonligi ehtiyojlari uchun ham yetkazib berilgan.

Demak, xonlik hududini dehqonchilik mintaqalari bo'yicha quyidagicha tasniflash mumkin:

Zarafshon daryosi vodiysi – sug'orma dehqonchilikning eng qadimiy va yirik markazi;

Qashqadaryo vodiysi va uning irmoqlari – ikkinchi darajali, ammo muhim agrar hudud;

Amudaryo vodiysi – uning irmoqlari Surxon, Kofirigon va Vaxsh bilan birga sug'orish imkoniyatlari keng bo'lgan mintaqa;

Hisor va Pyotr I (Buyuk Pyotr) tizmalari tog'li hududlari – asosan, tabiiy yomg'ir suvlari hisobiga sug'oriladigan dehqonchilik yerlari [4].

Xonlikning eng serhosil hududlaridan biri hisoblangan Zarafshon daryosi vodiysi ulkan tekislik bo'lib, aholisining zich joylashuvi va dalalarini sug'orishda foydalaniladigan bu daryoning suvlari bilan ajralib turadi. Zarafshon daryosi Zarafshon muzliklaridan boshlanib, Samarqand viloyati hududidan janubiy irmog'i orqali oqib o'tadi. Ushbu irmoq “Qoradaryo” deb ataladi. Qoradaryodan asrlar davomida yaratilgan ulkan sug'orish tarmoqlarini tashkil etuvchi ko'plab kanallar (ariqlar) chiqarilgan bo'lib, ular grandioz irrigatsiya tizimini hosil qilgan.

Daryoning quyi oqimida Qoradaryo uchta irmoqqa bo'linadi. Ular Mahan, Qora-Ko'l-Daryo va Tayqir. Duob to'g'onidan esa Buxoro shahriga qarab yo'nalgan asosiy kanal Shahrud boshlanadi. Ushbu uch irmoqdan Mahan suvni chiqarib yuborish uchun xizmat qiladi, ortiqcha suv Mahan-Chiroqchi ko'lini hosil qiladi. Shu bilan birga, katta miqdordagi suv qumlarga singib ketib, xususan, Buxoro shahri atrofida ko'plab botqoqliklarni hosil qiladi.

O'ng tomondan quyidagi kanallar chiqarilgan: Mah-Abad, Tos-Dosh, Qaraman, Zaarik, Chouli, Turkiston, Qalqanrud, Mazorangon, Vobkent-Daryo va Xayrabod.

Chap tomondan esa quyidagi Narpay hamda Kerminga yaqin joyda aynan shu shahar uchun chiqarilgan Xanish-i-Kasob kanallari oqib o'tgan. Ko'rinib turibdiki, ilgari ushbu irrigatsiya tizimi orqali sug'oriladigan yer maydoni ancha keng bo'lgan. Ammo keyinchalik u qariyb 4000 kvadrat verstni (taxminan 500 ming desyatina) tashkil etadi. Ammo irrigatsiya tizimining bir qismi keyinchalik tanazzulga uchragan, buzilgan to'g'onlar suvni ko'plab kanallarga yetarli darajada chiqarib bera olmagan. Amalda ishlayotgan to'g'onlar esa juda sodda tarzda qurilgan bo'lib, o'z vazifasini to'liq bajara olmagan. Sug'orish tizimi mahalliy Buxoro amaldorlari qo'lida bo'lgani, ular irrigatsiya texnikasidan yetarli bilimga ega emasligi, shuningdek, ko'plab muhim sug'orish inshootlarining yo'qligi sababli katta hajmdagi suv qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilmasdan, balki qumlarga singib ketgan yoki Mahanga yo'naltirilib, Mahan-Chiroqchi ko'lga to'plangan hamda vodiyning turli joylarida botqoqliklarni yuzaga keltirgan.

Umumiy irrigatsiya tizimini nazorat qilish va uni muntazam saqlash uchun maxsus mas'ul shaxsning yo'qligi suvning behuda isrof bo'lishiga olib kelgan. Holbuki, irrigatsiya tizimi to'g'ri tashkil etilsa, mavjud suv resurslari mavjud holidan kamida bir yarim baravar ko'p maydonni sug'orishga yetar edi.

Shu tariqa, Buxoro xonligida yerlar uch toifaga bo'lingan:

Davlat (amiriy) yerlar.

Shaxsiy mulk yerlar.

Rus davlatiga qarashli (kazna) yerlar [4].

Ammo hayot va urf-odatlar shariatdagi asosiy nazariy qoidalarga sezilarli o'zgartirishlar kiritgan. Xususan, oddiy aholining yerlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoji va imkoniyat darajasi past bo'lgani va katta qismi foydalanilmay yotgani

sababli ko'pincha yerlar o'zbiarmonlik asosida egallangan. Buxoro ma'muriyati esa bunday holatlarga odatda aralashmagan, chunki davlat uchun bo'sh yotgan yerdan ko'ra, unga egalik qiluvchi dehqonning ekin ekib, undan hosil olishidan soliq (podat) undirish foydaliroq bo'lgan. Shu bois, bunday yerlarni o'zlashtirgan shaxsning huquqi amalda tan olingan va suvdan foydalanayotgan jamoa orqali tasdiqlangan. Agar yer bevosita daryodan yangi ariq qazib sug'orilgan bo'lsa, mazkur ariqni barpo etishning o'zi ham yerni egallash huquqini qonuniylashtiruvchi asos sifatida qaralgan.

Buxoro amirligida tog' yonbag'irlaridagi sug'orilmagan yerlar, ya'ni bog'ar maydonlar qishloq xo'jaligi uchun muhim resurs sifatida e'tirof etilgan. Har qanday bo'sh va hech kim tomonidan o'zlashtirilmagan yer uchastkasi dehqon tomonidan ekin maydoniga aylantirilishi mumkin bo'lgan. Buning uchun dehqon mahalliy amlyakdorga murojaat qilib, o'z huquqini rasman tan oldirishi lozim edi. Amlyakdor uni "kash" ya'ni "qo'sh" egalari qatoriga kiritgan, ya'ni ikki ho'kiz yordamida haydab ishlashga mo'ljallangan yer uchastkasini berib, dehqonni undan olingan hosil hisobidan soliq to'lovchi sifatida qayd etgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududida irrigatsiya tizimini takomillashtirish masalasi muhim muammolardan biri sifatida maydonga chiqdi. Rus muhandislari tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar dastlab Buxoro hukumatining e'tiborini tortgan bo'lsa-da, ularning amalga oshirilishi sezilarli moliyaviy xarajatlarni talab qilgani sababli natijada bajarilmay qolgan. Jumladan, Zarafshon suvini tartibga solish va undan samarali foydalanish bo'yicha taklif etilgan loyihalar dastlab ma'qullangan bo'lsa ham, keyinchalik Buxoro hukmdorlari rus mutaxassislarining rahbarligini chetlab o'tib, irrigatsiya ishlarini faqat mahalliy ariq-oqsqollari ishtirokida amalga oshirishni ma'qul ko'rdilar. Natijada irrigatsiya sohasiga oid vaziyat o'zining avvalgi darajasida qolib ketgan.

Zarafshon suvining taqsimoti masalasi ham o'sha davrda dolzarb bo'lib qolgan. Samarqand viloyati hududidan oqib keladigan suvning aniq hisob-kitobi mavjud bo'lmaganligi sababli, Buxoro xonligi amalda daryo suvining uchdan bir qismidan ko'prog'idan foydalanar edi. Bu vaziyatni tartibga solish uchun muhandis Mitnikov tomonidan maxsus suv

taqsimlagich qurish loyihasi ishlab chiqilgan edi. Unda Zarafshon suvining aniq uchdan bir qismini Buxoro amirligiga ajratib berish ko'zda tutilgan va loyiha qiymati 200 ming rubl deb baholangan. Ushbu loyiha irrigatsiya mutaxassislari tomonidan e'tiborga loyiq hamda amaliy jihatdan dolzarb hisoblangan [4].

Shuningdek, 1880-yillarda Buxoroda faoliyat yuritgan rus siyosiy agenti Lesser tomonidan Qarshi dashtini keng miqyosda sug'orish loyihasi ham ishlab chiqilgan. U Amudaryo suvini maxsus kanal orqali chiqarib, dasht hududlarini dehqonchilikka yaroqli qilishni taklif qilgan. Biroq bu loyiha 7 million rubl miqdoridagi juda katta mablag' talab qilgani sababli amalga oshirilmadi. Bundan tashqari, Buxoro hukumati mazkur tashabbusga ijobiy munosabat bildirmay, uni sovuqqonlik va hatto ma'lum darajada dushmanlik bilan qarshi olgan. Natijada, XIX asr oxiriga kelib, Buxoro amirligida irrigatsiya masalasi tubdan hal etilmadi.

Xulosa. Rus muhandislari tomonidan taklif etilgan loyihalar iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko'ra amalga oshmay qoldi, irrigatsiya tizimi esa, asosan, mahalliy an'analarga asoslangan holda, o'zining ancha sodda shaklida davom etdi. Bu esa hududning agrar rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatib, mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini cheklab qo'ydi. 1889-yilda rus qo'shinlari tomonidan Amudaryo bo'yidagi Termiz qal'asining egallanishi bilan hududning irrigatsiya tizimini rivojlantirish masalasi muhandislik doiralari kun tartibiga qo'yildi. Amir tomonidan harbiy ehtiyojlar uchun 10 ming desyatina yer ajratilgach, harbiy-muhandislik boshqarmasi mazkur maydonni sug'orish maqsadida maxsus magistral kanal qurishni rejalashtirdi. Dastlab qadimda Termiz shahrini Qizilsuv daryosi (Surxandaryoning irmog'i) suvlari bilan ta'minlab turgan qadimgi irrigatsiya tarmoqlarini qayta tiklash masalasi ko'rib chiqiladi. Biroq bu ishlar nihoyatda katta mablag' va kuch talab qilishi aniqlangach, loyiha Surxondaryo suvlaridan foydalanish bilan chegaralangan. Natijada yangi irrigatsiya tizimi barpo etiladi va 300 ming rubl xarajat evaziga yangi dehqonchilik yerlari sug'orishga yaroqli holatga keltiriladi. Demak, mazkur loyiha Rossiya imperiyasining Buxoro amirligi hududida irrigatsiya sohasidagi ilk amaliy tajribasi sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Огахий. Жоме ул-вокеоти султоний. Жилд 6. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 207 б.
2. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Введение, перевод, примечания, указатели Ахмедова Б.А. – Ташкент: Фан, 1977. – 166 с.
3. Магидович И. Хорезм // Территория и население Бухары и Хорезма. Часть 2. – Тошкент, 1926. – С. 142.; Шастал И. Орография и ирригация Хорезма // Территория и население Бухары и Хорезма. – Ташкент, 1926. – С. 3-20.; Штернберг Л. Первобытная религия в свете этнографии. – Ленинград: Институт народов Севера, 1936. – 572 с.; Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. – Тошкент: Фан, 1974. – 343 с.
4. Логофеть Д.Н. Бухарское ханства. Том 2. – Санкт-Петербург: Коловольная упица, № 14. 1911. – С. 76.